

BO`LG`USI KASB TA`LIMI O`QITUVCHILARIDA MA`NAVIY-IJTIMOIIY FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI

G`.Achilov
TAYI assistent

Ma'naviy-ijtimoiy faollik shaxsning o`ziga xos xususiyati bo`lib, ma'lum darajada temperament tipi, aqlu zakovati, tafakkuri, qobiliyati va iste'dodiga bog`liqdir. Ushbu ruhiy sifatlar, shaxsning individual psixologik xususiyatlari irsiy ildizlarga ega bo`lsada, ta'lim-tarbiyaga, ijtimoiy muhit ta'siriga, o`zining shaxsiy intiluvchanligiga va ma'naviy ijtimoiy faolligiga suyanadi. Ammo, hayotda har qanday tug`ma talant o`z faoliyatida ma'lum ijobiy natijalarni ko`rsatish mumkin, lekin ular ustida ta'lim-tarbiyaning birligi tamoyiliga tayanib jiddiy ravishda shug`ullanilgandagina, alohida e'tibor berib shakllantirilgandagina o`zining yuksak samarasini ko`rsatadi. Talaba yoshlardagi ma'naviy-ijtimoiy faollik ham qobiliyat va iqtidorning bir ko`rinishi bo`lib, yuqorida ta'kidlab o`tganimizdek ularga beriladigan ta'lim-tarbiyaning birligi tamoyili ta'sirida shakllanib boradi.

1-bosqich. Dastlab bola shaxsining ijtimoiylashuvi oilada, ota-onaning unga nisbatan munosabatida va uning oilaviy muammolarni hal etishdagi ishtirokida ko`rina boshlaydi. Chunki ijtimoiylashuvning uzluksizligida oilaning o`rni hamda mavqye falsafiy va sotsiologik tadqiqotlar jarayonida alohida faolligi nafaqat falsafiy, sotsiologik ayni paytida pedagogik muammo sifatida o`rganilar ekan, bunda oila ijtimoiy tarbiyada bosh omil vazifasini o`tashligiga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Darhaqiqat, shunday ekan ushbu jarayonda oilaning barcha a'zolari kelajagimiz bo`lgan yoshlarga ijobiy ibrat - namuna bo`lishlari, jamoaning manfaatini shaxsiy ehtiyojdan ustun qo`yishlari talab etiladi.

Bola maktabgacha tarbiya muassasalarida "meniki" tushunchasidan "bizniki" so`zini ko`proq ishlatishga o`rganadi. U joydagi jihozlar, o`yinchoqlar, o`quv qurollari, stol-stullar, turli rasm-sur'atu bezaklar hamma uchun teng ekanligini his etadi. Tarbiyachi opalar hamma bolalarni birga o`ynashga, birgalikdagi ovqatlanishga, bog`cha mashg`ulotlarida birga ishtirok etishga, o`z qishlog`i va shaxarchasidagi ahamiyatga mollik joylarga birga sayr qilishga, o`rgatadilar.

Bolada dastlabki ma'naviy-ijtimoiy munosabat ko`nikmalari va kurtaklari paydo bo`la boshlaydi.

2-bosqich. Maktabda o`quvchining ma'naviy-ijtimoiy faolligi yanada takomillashib boradi. Endi bolada o`z sinfi, tengdoshlari, maktabi, mahallasining kichik-kichik muammolariga, kundalik turmush tarziga qiziqish va ularda ishtirok etishga intilish hissi tarkib topadi. Maktabda tashkil etiladigan tadbirlarda, shanbaliklarda, bayramu tantanalarda, turli ommaviy sport musobaqalarida, badiiy havaskorlik, tanlov va forum, kelajak ovozi kabi davlat miqyosidagi konkurslarda ishtirok eitb, o`z jamoasining sharafigini himoya qiladi. Endi maktab o`quvchisida ta'limda onglilik, faoliyati va mustaqillik tamoyili asosida ma'naviy-ijtimoiy faollikka xos bo`lgan sifatlar - tashabbuskorlik, ijodkorlik, bunyodkorlik kabi tushunchalar rivojlanib boradi.

3-bosqich.

Bu bosqichda akademik litsey yoki o`rta maxsus kasb-hunar kolleji o`quvchisida o`ziga xos individual-ruhiy, irodaviy va xarakter xususiyatlari shakllangan bo`ladi. Bu vaqtga kelib, ularda tanlash motivi bir muncha aniq tus olgan, o`quvchi egallamoqchi bo`lgan kasbining ijtimoiy hayotdagi o`rnini tushunib yetgan bo`ladi. Bu jarayondagi ijtimoiylashuv o`zining sifat ko`rsatkichlariga ega bo`lib, mehnatga va o`z tengdoshlariga bo`lgan munosabatlarida o`zaro hamfikrlik bir-biriga maslahat berish, bir-birini qo`llab-quvvatlash kabi motivlar barqaror tus ola boshlaydi.

O`quvchidagi ma`naviy-axloqiy qarashlar uning ijtimoiy hayotga bo`lgan munosabati bilan uyg`unlashib boradi. Ayniqsa, ijtimoiy fanlarni o`qitish jarayonida insonparvarlik kabi yuksak tuyg`ularning yanada mukammallashuvi barqaror tus oladi. O`quvchi o`zidagi mustaqil fikr asosida mustaqil izlanish, yangi axborot texnologiyalarini o`rganish, internetga chiqish va axborot resurs kutubxonasi manbalaridan unumli foydalanishga harakat qiladi. Bu xarakatlar o`quvchidagi ma`naviy-ijtimoiy faollikning mazmunini belgilaydi. Shuningdek, bu jarayonda o`quvchilarda ta`limning ta`lim oluvchilarga mos bo`lishi tamoyili asosida shaxsiy, kasbiy, individual xususiyatlarni namoyon qilishga; bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirish; ularning umumkasbiy hamda maxsus fanlarga oid bilimlarini rejalashtirishga; auditoriyada va auditoriyadan tashqarida olingan bilimlarni tartibga solishga, hamda nazorat qilish uchun ongli ravishda foydalana bilishga; ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga asos bo`luvchi pedagogik omillar namoyon bo`ladi.

4-bosqich. Oliy ta`lim bosqichi

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ta`lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o`tmish mafkuraviy qarashlardan to`la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma`naviy-axloqiy talablarga javob beradigan, yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish maqsadi qo`yilgan.

Kasbiy faoliyat samaradorligiga erishish va pedagogik jarayonning bir butunligini ta`minlashda kasb ta`limi tizimi bo`lg`usi o`qituvchisini ma`naviy-kasbiy tarbiyalash ta`lim jarayoniga faol ta`sir ko`rsatuvchi hamda uning kafolatli natijasini belgilab beruvchi omil vazifasini o`taydi va u quyidagi oliy ta`lim bosqichida amalga oshadi. Bu bosqich birinchi navbatda ijtimoiy adaptatsiya jarayoni bilan boshlanib, oliy ta`limga nisbatan munosabat, yondashuv, ma`naviyatning o`rni hamda ahamiyatiga teran fikrlar va mushohadalar asosida yangicha tafakkur qaror topgan bo`ladi. Bu o`rinda ma`naviy ijtimoiy hayot motivatsiyasi asta- sekinlik bilan izchil, barqaror va tizimiy xarakter kasb etadi. Kasb ta`limi tizimi bo`lg`usi o`qituvchilarining ma`naviy ijtimoiy faolligi pedagogik va psixologik omillar bilan chambarchas bog`liq holda yuzaga chiqadi. Natijada bo`lajak mutaxassis hayotida o`ziga xos ijtimoiy o`zgarishlar qaror topadi. U bo`lajak mutaxassis sifatida o`zi tomonidan egallanayotgan pedagogik va psixologik bilimlar, pedagogik va kasb ishlab chiqarish amaliyotlariga alohida e`tibor qarata boshlaydi. U bo`lajak mutaxassis sifatida quyidagilarni o`zlashtira boshlaydi.

Bular:

- Izlanuvchanlik;
- Yaratuvchanlik; ijodkorlik;

- Analitik tafakkurga ega bo'lishlik;
- Vaqtdan unumli foydalana olishlik;
- Kasbiy o'z-o'ziga talabchanlik;
- O'z kuchi va imkoniyatlariga ishonish;
- Komunikativlik;
- Tashkilotchilik;
- Kasbiy o'z-o'zini tahlil tahlil eta olish va hakazolar.

Bo'lajak mutaxassislarda talabalik davridan ilmiy dunyoviy dunyoqarashni shakllantirish yig'indisi va natijasida ma'naviy ijtimoiy-innovatsion maydon vujudga keladi. Qachonki bo'lajak mutaxassis shaxs sifatida o'z-o'zini kasbiy taftish eta olsa va o'z imkoniyatlariga hamda kuchiga ishonsa, muvaffaqiyatsizlikka olib keluvchi omillarni yengib o'ta oladi.

Bo'lajak mutaxassislar ma'naviy ijtimoiy faollik faoliyatining muhim jihati shundaki, bu jarayonda u mustaqil ilmiy, ijodiy ishlashga o'rganadi. O'quv mashg'ulotlaridan tashqari vaqtlarida ilmiy-ijodiy ishlari natijalari, hisobot, referat, maqola, ixtiro, loyiha, tavsifnoma va bitiruv malakaviy ish ko'rinishlarini bajaradi. Bu singari ishlar bo'lajak mutaxassislarda ma'naviy ijtimoiy faollikni shakllantirib, rivojlantiribgina qolmasdan, balki ular o'zlashtirgan bilimlarning yanada chuqur va mustahkam bo'lishiga olib keladi hamda kasbiy-amaliy ko'nikmalarini takomillashtiradi. Ma'lumki, inson rivojlanishining yuksak ko'rsatkichi sanalgan ma'naviy ijtimoiy faollik nihoyatda keng qamrovli va ko'p qirrali ijtimoiy jarayon hisoblanadi. Shu jihatdan tadqiqotchi olimlar ma'naviy ijtimoiy faollik, ma'naviy ijtimoiy rivojlanish, umrni, vaqtni qadrlash kontseptsiyasi kabi tushuncha va ma'lumotlarga ta'rif berishganlarida ularning har qaysisi ma'lum bir qirralarni ochib berishga harakat qilganlar.

Taniqli olimlarimizdan M.Bekmurodov "umrni qadrlash kontseptsiyasida pragmatistik omilning ahamiyati katta bo'lib, insonning turmushda jarayoniy maromda harakatlanishdan natijaviy mo'ljal olib maqsadli harakatlanishga undaydi. Pragmatik shaxs qat'iyatli inson bo'lib, dastavval o'zining aytgan so'ziga, qilayotgan ishiga, maqsadlariga sidqidildan ishonadi va ularning ro'yobi uchun qat'iyat bilan kurashadi. Boshqalarni esa o'zining komil imon-ishonchi hatti-harakatlari bilan o'z atrofiga birlashtira oladi"-deydi. Bu fikri bilan muallif olim shaxsini jamoada yetakchi darajasiga ko'taradi. Yetakchi pragmatizm jamoa fe'l-atvori, ma'naviyati, ruhiy olami, dunyoqarashlariga kuchli ta'sir o'tkazib, aholi turli qatlamlarida hayotga bo'lgan ijobiy yondoshuvni shakllantiradi, degan fikrni bildiradi. Biz tomondan tavsiflanayotgan bo'lajak mutaxassis shaxsining ma'naviy ijtimoiy faolligi to'g'risidagi fikrlar aynan pragmatistik yondashuvning ijtimoiy zarurat darajasida ekanligini ta'kidlaydi.

O'zbekistondagi ijtimoiy rivojlanish kontseptsiyasining asosini aynan inson, uning manfaatlari tashkil etadi. Prezidentimiz I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 27 yanvar kuni bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi "Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustuvor maqsadimiz" hamda Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 yanvar kuni bo'lib o'tgan majlisidagi "Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyotini va

xalqimiz faravonligini yanada yuksaltirish” mavzularidagi ma’ruzalarida “... Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustuvor maqsadimiz,” degan fikr mulohazalarida jamiyatimizda barkamol avlodni tarbiyalash oliy ta’limning asosiy vazifalaridan biri ekanligini ta’kidlaydi. Ayniqsa, bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarining o’quv jarayonidagi tub maqsadlari kuchli fuqarolik jamiyatining barpo etilishiga xizmat qilishdan iborat ekanligi va bu shaxsning ma’naviy ijtimoiy faolligi omilida o’z ifodasini topadi.

Ma’naviy ijtimoiy faollikning pirovard natijasi quyidagilardan iborat:

- Talaba bo’lajak mutaxassis sifatida o’zining ma’naviy-kasbiy faoliyatidagi o’rnini to’g’ri baholay oladi;
- Talabada ma’naviy ijtimoiy faollik jarayonida kasbiy-bilim, ko’nikma va malakalar shakllanadi, shaxsiy va kasbiy sifatlar barqarorligiga erishiladi;
- Jamiyat a’zolaridek, ayniqsa yoshlar orasida ma’naviy ijtimoiy faollik madaniyatini shakllantirish, ularni mustaqil hayotga tayyorlashni tarkib toptirish va takomillashtirish asos bo’ladi.